



OLIM TOSHBOYEVNING “ULTONTOZ” ROMANIDA YAQIN
O‘TMISH VOQEALARINING POETIK TALQINI

Mamirova Mamlakatxon Ilhomjon qizi

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ultontoz romanidagi davr voqealari: Sho‘ro hukumatining o‘rnatilishi, ommaviy dahriylashtirishmilliy qadriyatlarning yo‘q qilinishi tahlil qilinadi.

Annotation. This article analyzes the events of the period depicted in the novel Ultontoz: the establishment of Soviet power, mass secularization (atheization), and the destruction of national values.

Аннотация. В данной статье анализируются события эпохи, отражённые в романе «Ултонтоз»: установление советской власти, массовое обмирщение (атеизация) и уничтожение национальных ценностей.

Olim Toshboyev 1971-yil 27-mayda Surxondaryo viloyati Boysun shaxrida tug‘ilgan. O‘zining bolalik xotiralariga ko‘ra, yozuvchi tugilgan vaqtida oilasi Qassobguzar mahallasida Vohid qassob ismli kishining uylarida ijarada turganlar. Ijodkorning ota onasi uzoq yillar u oila va xonadon sohibini tug‘ishgan qadr doni kabi eslashini aytadi. Ijodkorning Boysun shahridagi 1 va 6 sonli maktablarda o‘qigan (Avval inqilobchi nomida bo‘lgan. Ijodkor Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti jurnalistika fakultetini tamomlagan. Shoir Abdulla Oripov ilmiy rahbarligida avval diplom ishi, keyin nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ko‘plab maqolalari e‘lon qilingan. “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” faxriy unvoni sohibi.



Olim Toshboyev talabalik yillaridayoq matbuotda ko‘rinishi bergan. Uning "Kiprik soyasi"(1992) va "Karbalo"(1994) hikoyalari talabalik yillarida e‘lon qilingan. Bu hikoyalar o‘quvchilar tomonidan iliq kutib olingan. Ijodkor uzoq yillar ijodiy ko‘rinish bermadi. Ilmiy ishi va talabalarga dars berish bilan shug‘ullandi. Va 2015 yilda Shukur Xolmirzayev hayot va ijod yo‘l yoritilgan “Abadiy zamondosh” asari bilan ijodga qaytish qiladi. Undan so‘ng, yozuvchining qator asarlari e‘lon qilinadi; “Botindagi bo‘ron”, “Oybolta ostidagi olamon”, “Ultontoz”, “Kishan” romanlari va yaqindagina e‘lon qilingan “Fitrat” romani. Odatda, yozuvchilar avval hikoyalar, keyin qissalar, keyingi yirik romanlar yozadi. Olim Toshboyevning bu jihatdan o‘ziga xosligi hikoyadan keyin roman yozishi. Oradagi uzoq tanaffusga qaramay, Olim Toshboyev asarlarida bu sezilmaydi. Asarlarining badiiy saviyasi, so‘z qo‘llash va obraz yaratishdagi mahorati yozuvchidagi o‘ziga xoslikni yaqqol ko‘rsatadi.

Olim Toshboyevning G‘afur G‘ulom nashriyatida “Yangi O‘zbek romani” ruknida chop etilgan “Ultontoz”(2019) romani ko‘p ham uzoq bo‘lmagan tariximizdagi voqealarning badiiy talqini hisoblanadi. Yozuvchi o‘zining “Abadiy zamondosh” asariga ma‘lumot to‘plash jarayonida ko‘plab eski gazeta va jurnallar ustida izlanish olib boradi va shu paytta o‘zi hech yuzlashmagan tarix bilan to‘qnash keladi. Eski gazetalardagi ijtimoiy maqolalardagina saqlanib turgan tarixni Olim Toshboyev “Ultontoz” romanida tiriltiradi.

Adabiyotshunos Abdulla Ulug‘ov ta‘riflashicha, “Olim Toshboyevning o‘quvchilariga havola qilayotgan “Ultontoz” asari hajmi katta, cho‘ziq hikoya, qissa emas, balki, chindan-da roman! Chunki, u 48 yoshga kirib hayotda muayyan tajriba orttirib taqdim etayotgan Ultontozda adabiyotda ancha asrdan buyon cho‘qqi sanalayotgan roman janriga xos eng muhim xususiyatlar mujassam. Ya‘ni u hayot hodisalarini qamrab olish ko‘lami, syujetning keng tarmoqlanishi, ijtimoiy turmush borligini tahlil qilish darajasi, personajlarning kechmish- kechirmishini naql qilish tarzi, bir-biriga bevosita aloqador

personajlar galareyasiga ega ekanligi, qahramonlar fe'l atvori, ichki olami har tomonlama yoritilgani bilan roman janri talablariga to'la javob beradi. Bu jihatdan o'ziga xos salmoqqa ega. "Ultontoz"ni tarixiy mavzuga bag'ishlangan va zamonaviy hayot yoritilgan romanlar bilan bemaolol bir qatorga qoyish mumkin."¹

Yozuvchining bu asarida sho'ro davrining murakkab ijtimoiy voqelikni yoritish, shu zamonda tug'ilib, tarbiyalangan kishilarning kechmish-kechirmishlari, o'zaro munosabatlari va ularning inson sifatida ziddiyatli olamini aks ettirish asosiy maqsad qilib qo'yiladi.

"Ultontoz"da oktabr to'natrishidan keyingi bir asr orasidagi alotasir zamon tasviri aks etadi. Asr boshidagi 30-yillar va asr oxiridagi 80-yillar siyosiy tuzumi, elga rahbarlik qiluvchilarning tiyiqsiz hohishlaridan aziyat chekuvchi xalqning turmushi bir-biriga juda yaqin. 30-yillarda xalqni dahriylikka chorchash, yozuvni almashtirish; 80-yillarda ham dahriylikka targ'ibot va o'zbek tilini davlat tili sifatida tan olmaslik holatlari yoritiladi. Yozuvchining o'zi ham izlanishlari natijasida shuni e'tirof etadiki, 30-80-yillar ijtimoiy hayoti va siyosiy tuzumi bir-biriga juda o'xshash bo'lgan.

Asardagi voqealar Alpomish dostoni bilan mengzab, parallel qoyilib bayon qilinadi. El orasiga sho'rolar bo'ri kabi oralab kirdi. Ammo boqinchilarni el orasida sazoyi qiladigan zo'r topilmadi. Zamonaning kibor kishilari ko'rinishida xalqqa qo'shilgan jondorlar gala-gala bo'lib, xalqni taladi. Xalqqa Ultontozlar ega chiqdi. Alplarning zo'ri chiqqan bu el mutelikni tanladi. Nima uchundir, "Yengsak g'oziy, yengilsak shahid bo'lamiz" deguvchi Eshoni Sudurlarning safi safi kengaymadi. Nega endi Alpomishlar yurtida endi Ultontozu, Bodomlar egalik qilmoqda? Buning bosh sababi: har bir kishida Alpomish va Ultontoz barovar yashaydi, ikkisidan qay birining g'olib bo'lishi esa insonning hayot yo'lini belgilab beradi.²

¹ Ulug'ov A. "Ultontozni o'qib" maqola.

² Turdimurodov. M. "Ultontozga uyg'un haqiqatlar", "Surxon yoshlar" gazetasi.

El orasida asrlar oshib kelgan maqollarining yozuv almashishi sababli joni uziladi, bu jarayon asarda "Birovni maqtasak, "Falonchi alifdek yigit" der edik. Otam rahmatli yerga tayoq chizib, "Ana shu alif" degan edi. Mimni og'zimizga, nunki tuyaning o'rkachiga mengzab o'rgatgan edi otam. Ikki qo'lini orqaga qilib enkayib yuradigan hamsoya boboni ko'rsatib: "Ana, dol degani xaliyam qulog'im ortida"...³

Harf almashib yozuv o'zgarib maqollarimizdan ham ayrilibmizda? Ularning ham joni chiqib ketibdiya" Ushbu muhtasar parchada ulkan fojia bo'y ko'rsatadi. Yozuv o'zgarish birgina siyosiy jarayon bo'lib qolmay, kishilarni savodsiz qilish bilan birga ota momolardan qolgan maqollarining ham yo'qolishiga, yosh avlodga tushunarsiz bo'lishiga olib keladi.

Sho'ro siyosatining maqsadi hisoblangan aholini dinsizlashtirish asarda asosiy masalalardan biri sifatida ko'rsatilgan. Qaynar raislik qiladigan "Xudosizlar uyushmasi" ning bir yig'ilishida, Qaynar so'z chiqib: "-O'rtoqlar, unutdikmi? Xotinlar to'grisida islom, shariat nima der edi? Xotin er bilan teng emas edi. Ayol bechora merosida "Hashtiyat ya'ni sakkizdan bir haq oladi, qiz bo'lsa yarim haq oladi. Qoziga borsa, sho'rlik ikki xotinning guvohligi bir erga barobar. Bu nimadan dalolat? Shariat bu bilan ayolning aqli qisqa demoqchi. Tag'in, bordiyu er xotinni ursa, urgan joyi do'zaxta kuymaydi degan gapni ham bizning xalq o'ylab topgan" deb nuqt so'zlardi. Bunday yig'ilish va nutqlarning maqsadi ayollarni dandan tashqarida qadr topishiga ishontirish va kelajakda butunlar dahriylar jamiyatida yashash.⁴

Ayol olilaning tayanchi va asosidir. Ayol ona, ya'ni kelajak bunyodkoridir. Ayolning kofir bo'lishi, bo'lajak kofirlarning yetishiga kafolatidir. "Otasi chatoq bir chatoq, Onasi chatoq hammasi chatoq" deganlaridek dinsiz ayol, dinsiz jamiyat demakdir.

³ Toshboyev. O "Ultontoz" Toshkent G' G'ulom nashriyoti. 2019 36-b.

⁴ Toshboyev. O "Ultontoz" Toshkent G' G'ulom nashriyoti. 2019 52-b.

Yana bir xulosa johillik sababli dinni yanglish talqin qilish va ko'ra-ko'rona ergashish. Zero, islomda ayolning o'rnini boshqacha, parchada aytilganidek, shariatda erkak va ayol teng emas, (lekin ruhiy jihatdan teng), Islom huquqshunosligiga ko'ra, guvohlik va meros masalalarida farqlar mavjud. Lekin yuqorida aytilgandek "er ursa, usrgan joyi do'zaxta kuymadi degan gaplarni xalq o'ylab topgan. Negaki, na Quronda, na hadilarda bu haqida ma'lumotlar yo'q.

Ayol ta'minoti erkak zimmasida bo'lgani sababli ota merosining aka ukasi olganining yarmini oladi, sababi: erkak oilani to'liq ta'minlaydi, ayol esa o'z mulkini saqlab qoladi.

Guvohlikda esa faqat moliyaviy masalardagina ikki ayol guvohligi bir erkaknikiga teng deyiladi; biri adashsa bir eslatish uchun. Boshqa masalalarda ayol guvohligi erkakniki bilan teng, zino guvohligida esa hatto erkak guvohligidan ustun ko'rladi.

Islom ayolni zaif deb kamsitmaydi, balki, uning fitratiga mos huquq va majburiyatlarni adolatli taqsimlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Ultontoz romani unitilayotgan tarixning jonlantirish bilan birga, Xalqning qanday qilib olomonga aylanish holatini ham ko'rsatadi. Asar Alpomish dostoni bilan parallel qo'yilib, xalqning o'z qahramonlarini (Alpomishlarni) yo'qotib, Ultontoz va Bodom kabi "ichki dushman"lariga bo'ysunishi sabablari tahlil qilinadi. Har bir insonning ichida Alpomish va Ultontoz o'rtasidagi kurash mavjudligi asarning falsafiy markaziga aylanadi.